



LUG‘ATCHILIK SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN YIRIK ILMIY TADQIQOTLAR

Sog‘inboyeva Shahzoda

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida o‘zbek lug‘atchiligi sohasida amalga oshirilgan yirik ilmiy tadqiqotlar, yangi lug‘at turlarining yaratilishi va zamonaviy leksikografik jarayonlar tahlil etilgan. Mustaqillik davri o‘zbek lug‘atchiligi uchun yangi bosqich bo‘lib, unda milliy til va madaniyatni rivojlantirish, ikki va ko‘p tilli tarjima lug‘atlarini yaratish, soha mutaxassislarining yetishib chiqishi hamda ilm-fan taraqqiyoti muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, “O‘zbek ismlari” kabi yirik asarlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek lug‘atchiligi, mustaqillik davri, izohli lug‘at, etimologik lug‘at, ikki tilli lug‘atlar, leksikografiya, ensiklopedik lug‘atlar, tarjima, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev, E. Begmatov.

MAJOR SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF LEXICOGRAPHY

Sog‘inboyeva Shahzoda

Student of Namangan State University

Abstract: This article analyzes major scientific research conducted in the field of Uzbek lexicography during the years of independence, focusing on the creation of new types of dictionaries and modern lexicographic processes. The period of independence has become a new stage in the development of Uzbek lexicography, marked by the advancement of the national language and culture, the compilation of bilingual and multilingual translation dictionaries, the emergence of professional lexicographers, and the progress of science and technology. The paper also examines the significance and contribution of major works such as “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”, “Etymological Dictionary of the Uzbek Language”, and “Uzbek Names” to the development of modern Uzbek lexicography.

Keywords: Uzbek lexicography, independence period, explanatory dictionary, etymological dictionary, bilingual dictionaries, lexicography, encyclopedic dictionaries, translation, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev, E. Begmatov.

Qayerdagi, milliy til bilimi zaruriy deb hisoblansa, shuningdek, lug‘atlar yaxshiroq tuzilgan bo‘lsa, o‘sha yerda adabiyot ham madaniyat singari yuksakroq turadi, – deb





hisoblaydi Sreznevskiy¹. X.Kasares esa «lugʻat adabiy til meʼyorlarini tasdiqlagan holda oʻqituvchilik vazifasini bajarishi kerak, u «til qonunlarining hisoboti» boʻlishi kerak», – deb yozadi².

Mustaqillik davrida oʻzbek lugʻatchiligi tilshunoslikning yetakchi, rivojlangan sohalaridan biri boʻlib qolmoqda. Uning rivojlanishida asriy leksikografik tajribalar, tilshunoslikning ravnaqi, yetuk lugʻatshunos mutaxassislarning yetishib chiqishi, ilm-fan va texnikaning taraqqiyoti, integrasiya jarayonlarining oʻrni yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga, bugungi kunda axborotning ahamiyati ortib borar ekan, kundalik turmushimizda, fanning hatto eng kichik tarmoqlariga oid lugʻatlar ham paydo boʻlmoqda. Lugʻatlarni sifat jihatdan yangilash, tarmoq lugʻatlari miqdorining ortishi, yangi lugʻat turlarini yaratish kabi ishlar amalga oshmoqda. Oʻzbek lugʻatchiligining taraqqiy etishida Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, E.Begmatov, E.Umarov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, A.Mahmudov, D.Xudoyberganova, B.Hasanov, Z.Mirahmedova, Z.Doʻsimov, X.Egamov, B.Oʻrinboyev, T.Mirzayev, B.Mengliyev, Y.Odilov kabi olimlarning xizmatlari katta. Mustaqillik davrida lugʻatchilikning turli sohaları rivojlanib borayotir. Mustaqil Oʻzbekistonning keng jahonga yuz tutayotgan vaqtda ikki tilli va bir necha tilli tarjima lugʻatlarning yuzaga kelishi jamiyat va davr ehtiyoji samarasidir. Inglizcha-oʻzbekcha, nemischa-oʻzbekcha, fransuzcha-oʻzbekcha, forsha-oʻzbekcha, arabcha-oʻzbekcha, turkcha-oʻzbekcha yoki oʻzbek tilidan boshqa tillarga tarjima lugʻatlar bilan bir qatorda inglizcha-ruscha-oʻzbekcha kabi bir necha tillarni qamrab oluvchi lugʻatlar ham tuzilmoqda. Ikki tilli yoki bir necha tilli soʻzlashgichlarni ham shular jumlasiga qoʻshishimiz mumkin. Mustaqillik davrida tarjima lugʻatlar sohasida yana bir katta ishga qoʻl urildi. Jumladan, 2 jildidan iborat «Ruscha-oʻzbekcha lugʻat» nashr etildi. «Nemischa-ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻat» (M.Umarxoʻjayev, N.Nazarov, 1994)³ kabilar ham shular jumlasiga kiradi. Istiqloq yillarida qomusiy lugʻatlarning miqdorida ham keskin oʻzgarishlar boʻldi. «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi», «**Tarix ensiklopediyasi**», «**Xotin-qizlar ensiklopediyasi**», «**Bolalar ensiklopediyasi**», «**Mening birinchi ensiklopediyam**» turkum lugʻatlari, «**Salomatlik. Ensiklopediya**», «**Islom. Ensiklopediya**», kabilar shular jumlasidandir. Ensiklopedik lugʻatlar soʻzlarning oʻzini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va

¹Мамбетова Р. Лексикографический аспект сравнительно-типологическоho анализа семантики shlashолов знания в каракалпакском и русском языках: Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – С.4.

² Фойдаланилшан манба: Мамбетова Р. Кўрсатилшан диссертация. – С.4.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – Б.5-9.



tushunchalarni izohlaydi, tushuntiradi⁴. Ular keng ommaga mo'ljallanganligi, illyustrasiyalarga egaligi bilan ajralib turadi.

Izohli lug'atlar esa so'z qo'llashning zamonaviy adabiy me'yorlari namunalarini ko'rsatib berishi, milliy tilda yozilgan asarlar mohiyatini to'g'ri tushunishga ko'maklashuvchi ko'rsatma bo'lishi, zamonaviy adabiy til leksikasi umumiy ahvolini aks ettirishi, zamonaviy adabiy til leksik semantik tizimini to'liq va yetarli ifodalashi kerak⁵. Bu tizimga nafaqat faol qatlamdagi so'zlar, shuningdek, tilning nofaol qatlami, jamoaviy, ma'lum sotsial va hududiy jihatdan birlashgan kishilar jamoasiga xos lug'aviy birliklar ham kiradi. Mustaqillik davrida amalga oshirilgan ulkan ishlar sirasida yangi tuzilgan besh jildli izohli lug'atni alohida hodisa sifatida keltirishimiz mumkin (O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2006-2008 yil / A.Madvaliyev tahriri ostida). Mazkur lug'atni tuzishda O'zR FA Til va adabiyot instituti xodimlari – O'zbekiston FA akademigi, filologiya fanlari doktori, professor A.Hojiyev, filologiya fanlari doktori, professorlar E.Begmatov, E.Umarov, D.Xudoyberganova, filologiya fanlari nomzodlari A.Madvaliyev, N.Mahkamov, Z.Mirahmedova singari yetakchi olimlarning xizmatlari beqiyos. Bu izohli lug'at o'zbek lug'atchiligi tarixida ilk marotaba katta hajmda yaratilgan lug'at bo'lib, 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmasini o'z ichiga oladi. Besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» oldingi ikki jildli lug'atdan qator afzalliklari bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda yaratilayotgan «Falsafa qisqacha izohli lug'at», «**Iqtisodiyot atamalari izohli lug'ati**», «**Alpomish**» **dostonining izohli lug'ati**» **kabilar izohli lug'at sifatida nomlangan bo'lsa-da, fikrimizcha**, xoslanganligi, terminologik va ensiklopedik xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, istiqlol davrida «O'zbek tilining etimologik lug'ati» (Sh. Rahmatullayev, 2000; 2003; 2009) tuzilishi katta voqea bo'ldi. Istiqlol davrida ma'naviyatga, milliy o'zligimizga bo'lgan qiziqish natijasida «Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati» (Toshkent: Sharq, 1998), «Islom. Ensiklopediya» (Toshkent, Sharq, 2016), «Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug'at» (Toshkent: G'afur G'ulom, 2016), «Qur'oni Karim» so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatkichli lug'ati» (Toshkent, 1995) kabi ma'naviy-ma'rifiy, milliy an'analarimizga oid so'zlar jamlangan lug'atlarning yaratilishi ham alohida ahamiyatga molik. E.Begmatov muallifligida onomastik xarakterdagi «O'zbek ismlari» (1991), «O'zbek ismlari ma'nosi» (1998), D.Xudayberganovanning «Lingvokulturologik

⁴ Madvaliyev A. Lu'fat va lu'fat turhlari xususida// Ўзбек тили ва адабиёти, № 1,2008 – Б.61.

⁵ Руководство для составления «Ўзбекско-русского словаря». - Ташкент, 1960.





terminlarning qisqacha izohli lug‘ati»⁶ kabilarning yaratilishi o‘zbek tili leksikasi tadqiqqa muhtoj boy manbalardan ekanligini ko‘rsatadi. Lug‘atchilikda erishilgan yutuqlarning amaliyotga tatbiqi sifatida esa mustaqillik davrida yaratilayotgan ko‘plab o‘quv lug‘atlarini misol keltirishimiz mumkin⁷.


Lug‘atlar axborot texnologiyasining ilmiy tadqiqotlarga tatbiqi natijasida yangi yo‘nalishda rivojlanib bormoqda. Ular ikki xil funktsiya bajaradi: birinchidan, ma‘lum asar tilini o‘rganib, til tarixi uchun material vazifasini bajaradi, ikkinchidan, statistik usul yordamida til hodisalarining faollik darajasini ko‘rsatib beradi. Mustaqillik yillarida bu sohadagi yutuqlarning bir qismi xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tadqiqotlar umumleksikani o‘rganishga bag‘ishlangan.

Hozirda lug‘atchilik borasida hal qilinmagan masalalar ham juda ko‘p. Jumladan, tadqiqotchi D.Kalonova «o‘zbek tilshunosligi zimmasiga kompyuterga xoslangan lug‘atchilikni yaratishdek dolzarb vazifa» yuklanayotganligini qayd etadi. Buning uchun so‘zlikni belgilab olish, lisoniy birliklar miqdorini va tarqalish darajasini hisoblash, lisoniy birliklarni modellashtirish, avtomatik tarjima dasturlarini tuzish vazifalari qo‘yiladi. Darhaqiqat, texnika va texnologiya jadallashib borayotgan zamonamizda lug‘atchilikning yangi yo‘nalishi yaratilishi kun talabidir. Sun‘iy intellektni yaratish, avtomatik tarjimani amalga oshirishda tillardagi farq tufayli kelib chiqadigan muammolarni hal qilish tilshunoslar va matematiklarning birgalikdagi harakatini taqozo qiladi. XXI asr «Axborot asri»da har bir sohada axborot texnologiyalariga moslashuv kuzatiladi. Jumladan, Nokia korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Mobile Dictionary dasturi matnni nutqqa aylantirish texnologiyasi bazasida so‘zlarni ovozli talaffuz qiluvchi 38 tildagi lug‘at hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tilida bir qator elektron lug‘atlarning yaratilayotgani («Fizikadan besh tilli kompyuter lug‘ati», 2001; «Inglizcha-o‘zbekcha kompyuter atamaları lug‘ati», 2009 kabi) istiqloq davri lug‘atchiligining yana bir o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, lug‘atchiligimizning yangi ufqlarini ochib berishi ehtimoldan xoli emas.

Yana bir masala – ideografik lug‘atlar yaratish muammosidir. Ma‘lumki, lug‘atlarda so‘zlarning tartiblanishi ikki tamoyil asosida amalga oshadi: alifbo tartibi va ideografik tartib tamoyili. Shu bilan birga so‘z yasalishi bo‘yicha tartib va aralash tartib ham uchraydi. G.Leybnis so‘zlarning lug‘atga joylashtirish tartibi haqida Shunday degan edi: «fuqarolar ishlatishi» uchun alifbo tartibida joylashtirish qulayroq, «falsafiy aql-

⁶ Худойберганава Д. Лингвокультуролик терминларнинг қисқача изохли луғати. – Тошкент, 2015. – 44 б.

⁷ Норхо‘жайева Х. О‘zbek tilining eskirgan so‘zlari o‘quv lug‘ati. – Qarshi, 2006. 76 b.





idrok» (egalari) uchun ularni «ma'nosiga ko'ra» joylashtirgan ma'qul⁸. Bu holatda Leybnis lug'atshunoslikdagi ikki tamoyil to'qnashuvini ko'rsatib beradi: qulaylik tamoyili (alifbo tartibi) va so'zlarni ularning semantik aloqalariga ko'ra joylashtirishga asoslangan tamoyil. Ideografik lug'atlarda so'zliklar odatdagidek alifbo tartibida emas, ma'nosiga ko'ra tartiblanadi. Agar alifbo tartibidagi lug'at so'zning o'zi haqida ma'lumot berishga xizmat qilsa, ideografik lug'atlar ma'noni izohlashda ishlatiladi. Shuningdek, sinonimlar va antonimlar lug'ati kabi turlar ham ideografik lug'atlarga yaqin turadi⁹. Ideografik lug'atlarning dastlabki namunalari arab tilshunosligida, Qur'on ilmining tafsiri bilan birgalikda rivojlanganligi aytiladi¹⁰. G'arb tilshunosligida esa ilk namuna 1852-yili ingliz olimi P.M.Rojening 50 yillik mehnatlari evaziga dunyoga kelgan. U ingliz tilidagi leksik kontinuumni quyidagi 6 ta katta va 24 ta kichik semantik maydonlarga bo'lib chiqqan. X.Kasaresning «Ispan tilining ideologik lug'ati», M.Molinerning «Ispan tilining uzual lug'ati», R.Xallig va V.Vartburglarning fransuz tilidagi semantik maydonlarga bag'ishlangan «Sistemaviylik leksikografiyaning asosi» kabi lug'atlar ideografik lug'atlarning ajoyib namunalari hisoblanadi¹¹. Rus tilida Y.Karaulov, V.Morkovkin¹², Y.Vannikov, A.Kukin¹³larning bu boradagi sa'y-harakatlari natijalari fanga ma'lum. Jumladan, V.I.Abayevning «Историко-этимологический словарь осетинского языка» (Moskva, 1958-1987) lug'ati izohli, ikki tilli, etimologik, qiyosiy-tarixiy va ideografik lug'at tamoyillarini jamlagan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davrida o'zbek lug'atchiligi yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda nafaqat an'anaviy izohli va tarjima lug'atlar, balki terminologik, onomastik va ensiklopedik lug'atlar ham faol yaratilmoqda. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti, yetuk olimlar Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev, E. Begmatov, D. Xudoyberganova va boshqalar bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Xususan, besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" o'z hajmi va ilmiy ahamiyati jihatidan o'zbek leksikografiyasi tarixida muhim voqea bo'ldi. Bugungi kunda yangi soha lug'atlari, terminologik va tarmoq izohli lug'atlar yaratilayotgani, milliy tilning boy imkoniyatlarini ochib berish hamda o'zbek tilshunosligi rivojiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

⁸Лейбнис Ш. Новые опыты о человеческом разуме. – Москва, Ленинград, 1936. – С.238-250.

⁹<http://ru.wikipedia.org/wiki>

¹⁰ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш.: филол. фан. доктори... дисс.– Тошкент, 2005. – Б.227-228.

¹¹ Ўринбоева Д., Умурзоков У. Ўзбек халқ дostonлари тилининг алфавит-частотали луғати. – Тошкент, 2006.

¹² Морковкин В.В. Опыт идеографического описания лексики. – Москва: Изд – во МSHУ, 1977.

¹³ Ванников Ю.В., Кукин А.Н. Картинный словарь русского языка. – Москва: Просвещение, 1965.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2005.
2. Мирзаев Т., Ҳайитметов А. Олимнинг ноёб тухфалари//ЎТА, 1993.
3. Хасанов Б. Принципы отбора и расположения слов в рукописных словарях к произведениям Навои// Адабий мерос, 3(49), 1989.
4. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
5. Умаров Э. Янги аниқланган Навоий луғати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009.
6. Шарипов Ж. Из истории перевода в Узбекистане (дореволюционный период): Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1968. – С.67-68.
7. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. доктори... дисс.– Тошкент, 2005. – Б.234-235.
8. Kalonova D. Ilmiy tadqiqotlarning avtomatlashtirilgan tizimi // Til va adabiyot ta'limi, 2012, №9. – Б.38-40.
9. Лейбнис Ш. Новые опыты о человеческом разуме. – Москва, Ленинград, 1936. – С.238-250.
10. <http://ru.wikipedia.org/wiki>
11. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш.: филол. фан. доктори... дисс.– Тошкент, 2005. – Б.227-228.
12. Ўринбоева Д., Умурзоқов У. Ўзбек халқ дostonлари тилининг алфавит-частотали луғати. – Тошкент, 2006.
13. Морковкин В.В. Опыт идеографического описания лексики. – Москва: Изд – во МШУ, 1977.
14. Ванников Ю.В., Кукин А.Н. Картинный словарь русского языка. – Москва: Просвещение, 1965.

Research Science and
Innovation House

